

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeveva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ELLIKQAL'A TUMANIDA TURIZM KLASTERINI JORIY QILISH MEXANIZMI

Norchayev Asatullo Norbo'tayevich

I.f.d. (DSc), TDIU professori

Annotatsiya: Ilmiy maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistik-rekreatsion klasteri tashkil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Turistik-rekreatsion klasteri tashkil qilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanining turistik resurslari va infrastrukturaning holati, uning turistlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari baholangan. Shundan kelib chiqan holda, maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turizm rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, turistlarga sifatli xizmat turlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, klaster, rekreatsiya, resurslar, infratuzilma, Aqchako'l, xizmatlar, sog'lomlashtirish.

Abstract: In this article, some research has been conducted on organizing a tourism recreational cluster as a case of the Ellikkala district of the Republic of Karakalpakstan. The nature of tourist resources and tourism infrastructure of the Ellikkala district of the Republic of Karakalpakstan, as well as its potentials of providing services for tourists, have been evaluated to organize the tourism recreational cluster. Based on statement above-mentioned, the research article defines general suggestions and recommendations in order to determine the directions of tourism development and to develop service quality for tourists in the Ellikkala district of the Republic of Karakalpakstan.

Key words: tourism, cluster, recreation, resources, infrastructure, Aqchakol, services, health improvement.

Аннотация: В научной статье проведено исследование по организации туристско-рекреационного кластера в Элликкалинском районе Республики Каракалпакстан. При организации туристско-рекреационного кластера оценено состояние туристических ресурсов и инфраструктуры Элликкалинского района Республики Каракалпакстан, а также его возможности по оказанию услуг туристам. На основе этого в статье описаны предложения и рекомендации по определению направлений развития туризма в Элликкалинском районе Республики Каракалпакстан, а также развития качественного обслуживания туристов.

Ключевые слова: туризм, кластер, рекреация, ресурсы, инфраструктура, Акчаколь, услуги, оздоровление.

KIRISH

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy muammolardan biri mintaqa turizmi rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor nimalarga qaratilishini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda izlanishlarimiz ko'rsatishicha, xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash sifatida klasterning imkoniyatlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Mintaqaviy turistik klaster bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadigan tizimdir. Mintaqaviy klasteri shakllantirishning muhim sharti xo'jalik yurituvchi subyektlarning geografik yaqinligi hisoblanadi. Muhim sohalarda ishlab chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar, tashkilotlarning bir qancha firmalari to'planmoqdaki, ular ishlab chiqarish miqyosida va turli-tumanlik bo'yicha, shuningdek axborotlarni va resurslarni iqtisod qilishni ta'minlamoqda. Ular o'rtasidagi munosabatlarning "quyuqlashishi" sababli mintaqaviy klasterlar juda katta raqobatbardoshlikka erishadi.

Bu borada 2022–2026-yillarga amalga oshirilishi belgilangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlarida biri sifatida ko'rsatilgan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy turistlarni 12 millionga, xorijiy turistlarni 9 millionga yetkazish¹ uchun infratuzilmani qayta ko'rib chiqish belgilab berildi. Bunda turistik xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali mamlakatimizga xorijlik turistlar tashrifini keskin ko'paytirish, xizmatlar eksportini bir necha bor ko'paytirish,

1 <https://lex.uz/>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son).



mahalliy aholining daromadlarini oshirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmonlari, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son, 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, ularda asosan yangi xizmat turlarini joriy qilish turlicha talqin qilingan va ta'riflangan, lekin ularning har bittasida ist'molchiga yo'naltirilganligi asosiy o'ringa ega. Biz mazkur xulosalarga asoslanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab, bu borada ayrim muassasalarda tadqiqot olib borilayotgan mualliflarning fikri va mulohazalarini tahlil qilib, ularning natijalarini umumlashtirib, takomillashtirish to'g'risidagi mulohazalarimizni qisqacha bayon qilamiz.

Turizm biznesiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Stanford University, Princeton University, Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, Universidad Complutense (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Sejong University, Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya) olib borilmoqda. Bu muassasalarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy adabiyotlar nashr qilingan bo'lib, turistik mintaqalarda klasterlarni tashkil qilish borasidagi tashkiliy omillarga va jaryonlarga yetarlicha e'tibor qaratmagandir.

Shu jumladan mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, D.X.Aslanova, B.N.Navro'z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To'rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, N.S.Ibragimov, A.T. Mirzaevlar turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashga katta hissa qo'shgan.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga oid tadqiqotlar olib borilmagan bo'lib, bu borada izlanishlar olib borilishi kerak bo'lgan ishlarning ko'lami keng bo'lib, turistik xizmatlarning bir-biriga mutonasib rivojlanishini ta'minlashimizda atroflicha belgilangan xalqaro tajribalarini ham hisobga olishimiz lozim.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni amalga oshirishda yaqin yillarda kutilayotgan o'zgarishlarni hisobga olish va shu orqali turizmning rivojlanishini yaxlit infratuzilma sifatida o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o'rgangan holda, kuza-tish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo'nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, yaqin yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani turizmi rivojlanishi yo'nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mintaqaviy klasterlarni tashkil qilishda davlat-xususiy hamkorlik tamoyillari asosida tashkil etish uning tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Amaliyotda samaradorlikni namoyon etuvchi davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi aloqalarning turli shakllari, modellari va mexanizmlari mavjud. Davlat klasterning turli omillari uchun platforma yaratish yo'li bilan joylarda klaster tashabbuskorligining rivojlanishiga, xodimlarga qo'shimcha ta'lim berish va ularni qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish orqali mahalliy ishchi kuchining malakasini oshirish, xorijlik tashrif buyuruvchilarni jalb qilish maqsadida mintaqa brendini yaratish va boshqalarga yordam beradi.

Mintaqalarni rivojlantirish uchun ustuvor tarmoqlarda klasterlarni nafaqat o'rta muddatli, balki uzoq muddatli, strategik istiqbolli, globalashtirish va xalqaro raqobat jarayonlarining rivojlanishi nuqtai-nazaridan yaratish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, hududiy rivojlanishning strategik maqsadlariga iqtisodiyotning raqobatdosh tuzilmasini shakllantirishga klasterli yondashuv doirasida erishish uchun yuqorida keltirilgan qoidalarni amalga oshirish mumkin. Qo'shimcha qiymat yaratish jarayonida o'zaro bog'liq klasterlarni tashkil etishda ishlab chiqaruvchi korxonalar, yordamchi va infratuzilmaviy tashkilotlar yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish uchun shahobchalarga bo'linib ketgan tarmoqlarga birlashadilar.



1-rasm: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistik-rekreatsion klasterning tuzilmasi²

Klasterni tashkil qilishda birinchi navbatda jozibadorlik nuqtai-nazaridan yondoshish talab etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari bo'yicha olib borilgan izlanishlarda Ellikqal'a tumani turistik jozibadorlikka egaligi aniqlandi. Klasterni aynan shu tuman miqyosida shakllantirish belgilab olindi.



2-rasm: Ellikqal'a tumanidagi tashkil qilinishi kutilayotgan klasterning jozibadorlik tamoyiliga asoslangan konseptual ko'rinishi³

² Muallif tomonidan tavsiya etilayotgan klasterning umumiy tuzilishi.

³ Muallif tomonidan tavsiya etilayotgan klasterning jozibadorlik tamoyillariga asosan tuzilishi.



So'nggi yillarda tuman fuqarolariga yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida mahalliy aholining o'z tumani hududida dam olishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda, ammo ko'plab rekreatsion hududlarida turistik infratuzilmalar etarlicha rivojlanmaganligi natijasida bu ko'rsatkich cheklangan miqdorda qolmoqda. Bu imkoniyatlarni yanada oshirish maqsadida tadqiqotimiz orqali Ellikqal'a tumanidagi yuqori turistik salohiyatini hisobga olgan holda turizmni rivojlantirishning yangi shakli ixtisoslashtirilgan turistik-rekreatsion klasterlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

1-jadval: Ellikqal'a tumani turistik-rekreatsion salohiyatining SWOT-tahlili⁴

	Ichki	Tashqi
	Kuchli taraflari	Imkoniyatlar
Ijoiy	Klaster hududining hamma-bopligi; turistlarning xavfsiz etib kelishi; ekologik toza tabiat; noyob flora va faunalarning mavjudligi; beqiyos madaniy-tarixiy resurslar; tibbiy-sog'lomlashtirish resurslari; beqiyos turistik-rekreatsion; qulay tabiiy va iqlimiy sharoitlar; milliy va tabiiy yodgorliklar; respublikaning qulay avtotransport yo'llari tugunida joylashganligi.	Tuman dam olish uchun jozibali joy sifatida joylashtirish; joylashtirish vositalari binolarini qurish; turistik-rekreatsion infratuzilmani shakllantirish; transport, muhandislik, ijtimoiy, axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish; milliy oshxona, texnik xizmatlarni yaratish; yo'l va yo'l chetidagi infratuzilmalarni rivojlanishi; salohiyatli investorlarning mavjudligi; aholi turmush darajasini yuqoriligi, dam olish kunlarining ko'pligi.
	Kuchsiz taraflari	Tahdidlar
Salbiy	Transport, muhandislik, ijtimoiy, axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanmaganligi; kadrlarning tajribasizligi, xizmat ko'rsatish-ning sifatsizligi; turxizmatlar narxining doimiy oshishi, xizmatlarni taqdim etish sifatining narxga javob bermasligi; past iqtisodiy salohiyat; turistik klasterlarni shakllantirish uchun davlat va turistik firmalar birgalikdagi harakatining muvofiqlashtiril-maganligi; hududiy brendning yo'qligi.	Tumanning xorijiy va mahalliy omaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan turizm uchun qulayliklarning etarlicha talqin qilinishi va tasvirlash; tumanning bir necha o'n yillar davomida iqtisodiy rivojlanishi etarlicha emasligi; turistlarning yanada rivojlangan infratuzilmaviy hududlarga chiqib ketishi; xizmat ko'rsatish sifating beqarorligi.

Tumanda ixtisoslashtirilgan turistik-rekreatsion klasterlarni tashkil qilishda ichki imkoniyatlardan kelib chiqan holda birinchi navbatda davlat, xususiy sektor, tadqiqot va ta'lim muassasalarining o'zaro munosabatlarini kuchaytirish, shuningdek ishlab chiqarish miqyosining natijasi, yagona marketing strategiya, reklamaga ketgan xarajatlar, asosiy va qo'shimcha brendlarni yaratish hisobiga barcha tizimlarning samarali ishlashiga imkon yaratish kerak.

Shu bilan birgalikda klaster tuzilmasiga uning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo'lgan muvofiqlashtiruvchi kengashning va klasterlarning tizim integratorlari sifatida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalarning kiritilishi innovatsiyalarning samarali klasterlararo transferini, keng miqyosli investitsion loyihalarni amalga oshirish hisobiga yangi bozorlarni o'zlashtirish hamda diversifikatsiyalangan turistik mahsulotni yaratishni ta'minlaydi.

Tumanda turistik-rekreatsion klasterlarni tashkil qilishga ehtiyoj tug'ilishining asosiy sababi, hudud boy turistik imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan undan foydalanish darajasi juda past ko'rsatkichlarga egaligidir. Buni tashrif buyurgan xorijlik turistlar sonidan ham ko'rsa bo'ladi. 2022-yilda 7250 ta xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, xizmat ko'rsatishdan 31250 AQSh dollari miqdorida tushumga erishilgan bo'lib, bu ko'rsatkich mintaqa salohiyatiga umuman mos kelmaydi.

Tumanda katta turistik resurslarga egaligiga qaramasdan shu kungacha turizm veb-saytini yaratish ishlari oxirigacha etkazilmagan. Bu o'z-o'zidan hozirgi raqamli innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilinayotgan vaqtdagi talablarga (xorijlik turistlar izlagan narsasini veb-saytdan topa olmaydi) javob bermaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud turistik infratuzilmaning miqdori va sifatini, transport vositalari imkoniyatlari, geografik joylashuvi, turistik xizmatlarning turli-tumanligi va istalgan turini yaratish imkoniyatlarini tahlil qilinishi natijasida "Ellikqal'a turistik-rekreatsion klasteri"ga tumandagi joylashgan turistik obyektlar va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni kiritish mumkinligi aniqlandi. Ularning turistik ixtisosligi, tabiiy-iqlim sharoitlari va joylashtirish hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan deyarli farq qilamasligi ularni bir klaster tizimiga birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

4 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari.



Tumanda klasteri rivojlantirishning asosi qilib olinayotgan rekreatsion-sog'lomlashtirish yo'nalishi bo'yicha imkoniyatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu borada sog'lomlashtirish obyektlarining nisbatan rivojlangan infratuzilmasi borligini ko'ramiz.

Klasterga kiritilishi taklif qilinayotgan hududlarda sog'lomlashtirish obyektlarining joylashuvi bo'yicha, asosan Aqchako'lni olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Tashkillashtirilishi taklif qilinayotgan klaster turistik-rekreatsion salohiyatidan foydalanish ularning raqobatbardoshligini va butun mavsum davomida dam oluvchilarga turistik va rekreatsion xizmatlarni xalqaro miqyosda taqdim etishni ta'minlash imkonini beradi.

Bu boradagi tahlillar ko'rsatishicha, tumanning Ayozaqal'a hududida (tarixiy, madaniy-ma'rifiy va biznes-turizmi), Tuproqqal'a hududida (etnografiya, ekologik, safari), Aqchako'l hududida (tibbiy-sog'lomlashtirish, ekologik, sarguzasht va ekzotika, qishki sport turlari, suv sporti turizmi) turlaridan yil davomida foydalanish imkoniyatini tug'diradi.

2-jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistik-rekreatsion klasterida turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari⁵

Obyektlar nomi	Turizm turlari	Turizm ixtisosligi
Aqchako'l	Sog'lomlashtiruvchi	Plyaj turizmi
Ayozaqal'a	Madaniy	Etnografik turizm (xalq og'zaki ijodi)
Tuproqqal'a	Madaniy-tarixiy	Milliy urf-odatlar xalq o'yinlari (mehmon kutish, ot va tuyalarda sayr va boshq.)

Umuman olganda, klaster tumanning o'z raqobatbardoshligini ta'minlash uchun, ya'ni o'n, yigirma yil va undan ko'proq davrda turistik korxonalarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani yaratish uchun haqiqiy imkoniyatdir. Bu yerda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari biznes rahbarlarining faol pozitsiyasi va mintaqadagi turli tashkiliy guruhlarining manfaatlari orasidagi ijobiy hamkorlikdir. Shunday ekan, klasterning muvaffaqiyat kaliti bo'lib taraqqiy etgan raqobat, samarali boshqaruvga yo'naltirilganlik va mintaqada ma'muriyati tomonidan ko'rsatiladigan ko'mak hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turistik-rekreatsion klasteri joriy qilishdan asosiy maqsad, birinchi navbatda ichki va tashqi turizmni keng targ'ib qilish, ichki turistik yo'nalishlar bo'yicha xizmatlarni faollashtirish va shu orqali vaqtdan unumli foydalangan holda ichki turizm infratuzilmasini yaxshilab olish imkoniyatini yaratish;

- turistik kompaniyalar, mehmonxonalar, kafe, restoranlar faoliyatini yo'lga qo'yishda imkon darajasida ularga ichki turizmni qo'llab-quvatlash orqali sharoit yaratib berish;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida sayohlarga ko'rsatishga arziydigan tabiat manzaralari to'g'risida ko'pchilik vatandoshlarimiz ma'lumotlarga ega emas. Shuning uchun turistik klasteri tashkil qilish orqali turizm infratuzilmasini yaxshilash lozim.

Shu bilan birgalikda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida turizmni diversifikatsiyalash talab etiladi. Mamlakatimizga asosan uzoq xorijlik turistlar havo yo'lari orqali kirib keladi. Bizda chipta narxi xalqaro darajaga qaraganda nisbatan qimmat bo'lganligi sababli o'rtacha mablag'ga ega bo'lgan turistlar soni kamchilikni tashkil qiladi. Biz aynan shu qatlamdagi turistlar bilan faol ishlashimiz kerak bo'ladi.

Ananaviy turistik markazlarimiz bo'lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivani targ'ib qilishda turistik resurslarga boy bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanini ham turistik yo'nalishlarga kiritish imkoniyatlarini ham ko'rib chiqishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.

⁵ Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarida olingan ma'lumotlar.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarori.
5. A.N. Norchayev. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. i.f.d. (DSc) ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. TDIU, 2021-yil. 254-b.
6. Norchayev A.N. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali.
7. № 2, mart-aprel, 2020-yil. 216-222-betlar.
8. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
9. www. unwto.org.
10. www. uzbektourism.uz.
11. www. stat.uz.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.